



BOYSUN TUMAN ORONIMIK TIZIMIDA SODDA TUB TARKIBLI ORONIMLAR

Zohirjon Kenjayev,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
zohirkenjayev8@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada toponimlarning grammatik tuzilishi tadqiqi masalasi, xususan, Boysun tuman oronimiyasida sodda tub tarkibli oronimlarni tasnifi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, toponim, geografiya, oronim, sodda, qo'shma, sodda tub, yasalmagan va yasalgan

Joy nomlari juda uzoq davrning mahsuli bo'lib, til tarixi, tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, geologiya kabi qator fanlar uchun boy faktik material beruvchi manbadir. O'zbekiston hududida joy nomlarini o'rganish XX asrning 60-yillaridan boshlandi.

O'zbekiston hududiy toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki monografik tadqiqot T.Nafasov dissertatsiyasi hisoblanadi. Unda Qashqadaryo viloyati toponimlarining grammatik xususiyatlari mavzusi ostida toponimlarning yasaliishi va tuzilishi bog'liq holatlar tahlil qilingan. T. Nafasov Qashqadaryo toponimlarini tarkibiga ko'ra sodda va qo'shma turlarga ajratib tahlil qilgan. Sodda (yasalmagan va yasalgan) toponimlar oronimlar, gidronimlar, komonimlar, shuningdek, mikro va makro toponimlarning barcha tipini birlashtirishi ta'kidlangan. Yasalmagan (tub) toponimlarning katta qismi ot va sifatlardan yasalganligi ko'rsatilgan va misollar keltirilgan. Tadqiqotchining fikricha, sifatlardan vujudga kelgan toponimlar o'tmishda sifat+ot tipida birikkan murakkab shakldagi nom bo'lgan, keyinchalik, ularning ikkinchi komponenti tushib qolgan. Dissertatsiyada leksik-semantik usul bilan yasalgan toponimlar salmoqli materiallar asosida tahlil qilingan. Yasalgan toponimlar uchun yasaliishning morfologik usuli - o'zakka ma'lum bir so'z yasovchi formantlarning



qo'shilishidan yasalishi xarakterli ekanligi ta'kidlangan. Tadqiq etilgan materiallar orasida yasovchi affiksi o'zak tarkibiga qo'shilib ketgan toponimlar ham sezilarli miqdorni tashkil etib, ularni morfologik tahlilga tortish qiyinchilik tug'dirishi alohida ta'kidlanib o'tilgan. Ishda toponimlar yasalishida mahsuldor bo'lgan -li, -lik, -liq affikslarining xususiyatlariga alohida to'xtalib, boshqa yaqin qarindosh turkiy tillarda bo'lgani kabi, o'zbek tilida ham bu affikslardan katta miqdordagi joy nomlari, asosan, oronimlar va oykonimlar yasalishi ko'rsatib berilgan.

Z.Do'simovning Xorazm toponimlarining tadqiqiga bag'ishlangan monografiyasida toponimlarning grammatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchining keltirishicha, toponimlarni grammatik jihatdan tekshirish juda ko'p lingvistik masalalarni yoritishga imkoniyat beradi. Toponimlarning lingvistik analizi tilimizda mavjud bo'lgan ko'plab grammatik elementlar (ba'zi tovushlar, affikslar va boshqalar)ning evolyutsiyasini, taraqqiyot bosqichlarini, so'z yasallishining qadimgi usullari va ba'zi fonetik hodisalarni aniqlashga yordam beradi.

Z.Do'simov Xorazm toponimlarini morfologik strukturasiga ko'ra tahlil qilishda o'ziga xos usulda yondashib, ularni quyidagi uch guruhga ajratib tahlil qilgan:

1. Apellyativ nomlar.
2. Formantli nomlar.
3. Indikatorli nomlar.

Z.Do'simov apellyativ nomlarning tahliliga alohida to'xtalib, bu guruhga kiruvchi nomlar aslida sinxron planda tub nom deb qaraladigan va hech qanday morfematik bo'lakka ajralmaydigan toponimlar ekanligini ta'kidlaydi. Ularning ko'pchiligi qadimgi leksik qatlamlarga tegishli bo'lib, ularning etimologiyasini aniqlash, tuzilishiga ko'ra boshqa nomlar bilan taqqoslash ancha mushkul ekanligini ko'rsatib o'tgan. Jumladan, Xorazm, Urganch, Xiva, Xanqa kabi nomlar hozirgi davrda tub so'z sifatida qaraladi va ular ayrim toponimik yasallishlarga asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi aytilgan.

O'rganilayotgan hududda turdosh ot yoki indikator to'g'ridan-to'g'ri atoqli otga aylanishidan hosil bo'lgan apellyativ nomlar ham mavjud ekanligi ta'kidlangan. Masalan: Bangi, Sopi, Qala, Kat va b..



S.Bo‘riyevning Urgut tumani mikrotoponimlarining leksek-semantik tadqiqiga bag‘ishlangan monografik ishida toponimlarning grammatik va yasallish xususiyatlariga tegishli tahlillar ishning “Toponimik so‘z yasallishining grammatik vositalari” qismida o‘z ifodasini topgan.

X.Xolmo‘minovning Boysun tumani mikrotoponimlarining tadqiqiga bag‘ishlangan monografik ishida toponimlarning grammatik va tuzulish xususiyatlari —Boysun mikrotoponimlarining grammatik va so‘z yasallish strukturasi mavzusi ostida tadqiq etilgan. Ishda o‘rganilayotgan hudud mikrotoponimlari grammatik tuzilishiga ko‘ra tub, yasallgan, qo‘shma va tarkibli tiplarga bo‘lingan.

Sh.Temirov Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsion ishida oronimlarni struktural-tipologik jihatdan tahlil qilib, ularni to‘zilishiga ko‘ra sodda tarkibli oronimlar, qo‘shma tarkibli oronimlar, murakkab tarkibli oronimlarga ajratadi.

Sodda tarkibli oronimlar tarkibiy tuzilishi faqatgina bir asos yoki bir asos va bir qo‘shimchadan iborat bo‘lgan orografik obyekt nomlaridir. Boysun tuman oronimlarining 20% ini sodda tarkibli oronimlar tashkil etadi. Bu nomlar tarkibida yasovchi qo‘shimchalarning mavjudligiga ko‘ra ham ikki turga ajratish mumkin bo‘ladi. Bular:

- 1) tub so‘zdan iborat sodda oronimlar;
- 2) tarkibida yasovchi qo‘shimchalari mavjud bo‘lgan sodda oronimlar.

Tub so‘zdan iborat bo‘lgan sodda oronimlar tarkibida hech qanday oronimik indikator va hech qanday qo‘shimchasiz hosil bo‘lgan oronimlardir. Bu tipdagi oronimlar appelyativlarning onomastik konversiya usuli asosida oronimga ko‘chishidan hosil bo‘ladi.

1-jadval: Boysun tumanda nutqiy tejam (ellipsis) natijasida hosil qilingan oronimlar

Orografik indikatorni bildiruvchi terminlardan iborat oronimlar	Gaza (O'rta Machay)
	Dara (Darband),
	Tumshuq
Rangi bilan bog'liq oronimlar	Ko'k (Machay, tepa)
	Qizil (Machay, tepa)
Obyektning belgisini bildiruvchi nomlar	Lalmi (yaylov),
	Xachcha (dara)
	Tokcha (tepa)
	Quduq (tog')
	O'yiq (dara)
	Qo'riq (maydon)
	Shoti (dara)
	Izma (dara)
	Parch (dara)
	Dodi (tog' sirti)
	Parg (dara)
	Cho'nqi
Biror bir madanning nomi bilan bog'liq bo'lgan nomlar	Zumrad (tog')
	Zok (qir)

Alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, ushbu keltirgan misollarimizda hozirgi kun nuqtayi nazaridan yondashganmiz. Ayrim onomastik birliklar diaxron jihatdan yasama bo'lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'riyev S. N. Urgut tumani mikrotoponimiyalarining leksik-semantik tahlili. Filol. fan. nom. ... diss. aftoreferati. – Toshkent, 2010.
2. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
3. Холмуминов Х. Микропонимия Бойсунского района и его окрестностей: Автореф. дисс..канд. филол наук – Tashkent, 1993. – 21 s.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd January, 2025

-
4. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фанлари фалсаф. доктори дис. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.19.
 5. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 б.